



## **Symposium on Natural and Applied Sciences**

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5<sup>th</sup> April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

---

### **RANGNING O‘ZI VA RANGSHUNOSLIK TARIXI**

Shavkatov Furqatbek Shuhratjon o‘g‘li

Andijon Davlat Pedagogika Instituti

Magistratura bo‘limi “Tasviriy san‘at” yo‘nalishi 1-kurs magistranti

shavkatovfurqatbek999@gmail.com.

#### **Annotatsiya:**

Ushbu mavzu rangning tabiati, uning fizik va psixologik xususiyatlari hamda rangshunoslik fanining tarixiy rivojlanish jarayonini o‘rganishga bag‘ishlangan. Rang inson hayotida muhim o‘rin tutib, u tabiat, san‘at, me‘morchilik va dizayn sohalarida keng qo‘llaniladi. Rangning paydo bo‘lishi yorug‘likning turli to‘lqin uzunliklariga ajralishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu hodisa ilmiy jihatdan birinchi marta Isaak Nyuton tomonidan o‘rganilgan. Rangshunoslik tarixi qadimgi davrlardan boshlab shakllanib, Sharq va G‘arb olimlari tomonidan rivojlantirilgan. O‘rta asrlarda ranglar ramziy ma‘nolar bilan izohlangan bo‘lsa, keyinchalik ilm-fan taraqqiyoti natijasida ranglarning fizik, optik va psixologik asoslari chuqur o‘rganila boshlandi. Hozirgi kunda rangshunoslik san‘at ta‘limi, dizayn va arxitektura sohalarida muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mavzuning dolzarbligi ranglardan to‘g‘ri foydalanish orqali estetik didni rivojlantirish, tasviriy san‘atda ifodaviylikni oshirish hamda ta‘lim jarayonida samarali metodlarni ishlab chiqish bilan belgilanadi.

**Kalit so‘zlar:** Rang, rangshunoslik, yorug‘lik, spektr, Nyuton, estetika, dizayn, tasviriy san‘at.

#### **Аннотация**

Данная тема посвящена изучению природы цвета, его физических и психологических свойств, а также историческому развитию науки о цвете.



## Symposium on Natural and Applied Sciences

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5<sup>th</sup> April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Цвет занимает важное место в жизни человека и широко используется в области природы, искусства, архитектуры и дизайна. Возникновение цвета связано с разделением света на разные длины волн, и это явление впервые было научно изучено Исааком Ньютоном. История науки о цвете формировалась с древних времен и развивалась учеными Востока и Запада. Если в Средневековье цвета объяснялись символическими значениями, то в результате развития науки физические, оптические и психологические основы цветов стали изучаться углубленно. В настоящее время наука о цвете имеет важное научное и практическое значение в области художественного образования, дизайна и архитектуры. Актуальность темы определяется развитием эстетического вкуса посредством правильного использования цветов, повышением выразительности в изобразительном искусстве и разработкой эффективных методов в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** Цвет, теория цвета, свет, спектр, Ньютон, эстетика, дизайн, изобразительное искусство.

### Annotation

This topic is devoted to the study of the nature of color, its physical and psychological properties, and the historical development of the science of color. Color occupies an important place in human life and is widely used in the fields of nature, art, architecture, and design. The emergence of color is associated with the separation of light into different wavelengths, and this phenomenon was first scientifically studied by Isaac Newton. The history of color science has been formed since ancient times and developed by scientists of the East and the West. If in the Middle Ages colors were explained by symbolic meanings, then as a



## Symposium on Natural and Applied Sciences

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5<sup>th</sup> April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

result of the development of science, the physical, optical, and psychological foundations of colors began to be studied in depth. Currently, color science is of significant scientific and practical importance in the fields of art education, design, and architecture. The relevance of the topic is determined by the development of aesthetic taste through the correct use of colors, increasing expressiveness in the visual arts, and developing effective methods in the educational process.

**Keywords:** Color, color theory, light, spectrum, Newton, aesthetics, design, fine arts.

### Kirish

Rang-inson hayotida muhim o‘rin tutadigan, atrof-muhitni idrok etishda asosiy rol o‘ynaydigan tabiiy va fizik hodisadir. Biz ko‘rayotgan har bir buyum, tabiat manzaralari va san‘at asarlaridagi go‘zallik aynan ranglar orqali namoyon bo‘ladi. Ranglar nafaqat ko‘rish hissi bilan bog‘liq, balki insonning ruhiy holati, kayfiyati va his-tuyg‘ulariga ham kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. Rangshunoslik esa ranglarning kelib chiqishi, xususiyatlari, o‘zaro uyg‘unligi va inson psixologiyasiga ta‘sirini o‘rganadigan ilmiy va amaliy sohadir. Ushbu fan fizika, san‘at, dizayn va psixologiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, qadim zamonlardan boshlab bugungi kungacha rivojlanib kelmoqda. Mazkur mavzuda rangning tabiati, uning ilmiy asoslari hamda rangshunoslik tarixining shakllanishi va rivojlanishi haqida umumiy ma‘lumot beriladi.

**Asosiy qism** Rang inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u atrof-muhitni idrok etishning asosiy vositalaridan biridir. Ranglar yorug‘likning turli to‘lqin uzunliklari orqali hosil bo‘lib, inson ko‘zi va miyasi tomonidan turlicha qabul qilinadi. Har bir rang o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, tabiat, san‘at va texnik



## Symposium on Natural and Applied Sciences

Hosted Online from London, United Kingdom


Date: 5<sup>th</sup> April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

sohalarda keng qo'llaniladi. Rangshunoslik fanida ranglarning kelib chiqishi, ularning turlari va o'zaro uyg'unligi o'rganiladi. Asosiy ranglar (qizil, sariq, ko'k) boshqa ranglarni hosil qilishda asos bo'lib xizmat qiladi. Hosila ranglar esa asosiy ranglarning aralashuvi natijasida paydo bo'ladi. Shuningdek, ranglar issiq va sovuq turlarga bo'linib, inson kayfiyatiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Ranglarning ilmiy asoslarini o'rganishda yorug'lik va optika muhim rol o'ynaydi. Yorug'likning prizma orqali o'tishi natijasida kamalak ranglarining hosil bo'lishi rangshunoslik fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Bu jarayonni ilmiy jihatdan asoslab bergan olimlardan biri Isaac Newton hisoblanadi. Tarixiy jihatdan rangshunoslik qadimgi davrlardan boshlab rivojlangan. Qadimgi sivilizatsiyalarda ranglar ko'proq ramziy ma'noda ishlatilgan bo'lsa, keyinchalik Uyg'onish davrida u ilmiy va san'at yo'nalishida chuqur o'rganila boshlandi. XX asrga kelib esa rang nazariyasi tizimli fan sifatida shakllandi. Bugungi kunda rangshunoslik dizayn, arxitektura, reklama, moda va kompyuter grafikasi kabi ko'plab sohalarda keng qo'llanilmoqda. Ranglar inson psixologiyasiga ham ta'sir etib, ularning kayfiyati va hissiyotlarini boshqarishda muhim rol o'ynaydi.

Isaak Nyuton (1643-1727) ingliz fizigi, matematiki va astronomi, XVII asr ilmiy inqilobining markaziy shaxsi edi. Uning asarlari klassik mexanika va optikaning asoslarini yaratdi va uning "Tabiiy falsafaning matematik tamoyillari" (1687) kitobi fan tarixidagi eng nufuzli asarlardan biriga aylandi.<sup>1</sup>

Tabiatdagi yorug'lik manbai-quyosh bo'lib, uning nuri juda murakkab yorug'lik hisoblanadi. Ingliz olimi Isaak Newton o'z laboratoriyasida birinchi marta quyosh



Isaak Nyuton (1643–1727) вакция

<sup>1</sup> *Optika (Opticks)*, Nyuton I. 1704.



## Symposium on Natural and Applied Sciences


Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5<sup>th</sup> April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

nurini uchburchak shaklidagi shisha prizma orqali o'tkazib tajriba o'tkazgan va natijada nur ekranda bir necha ranglarga ajralib ko'rinishini kuzatadi.

Olim qorong'i xonaga kichkina teshikdan quyosh nurini tushirgan va nur uchburchak shisha prizmadan o'tkazilganda, ekran sirtida spektr ranglarining hosil bo'lishini aniqlagan. Ekran sirtida hosil bo'lgan ranglarning eng kam singan pastki qismi qizil rang, eng ko'p singani esa binafsharang bo'lib, uning oralig'ida rang tasmlari o'rtasida aniq chegara bo'lmaydi. Har bir rang asta-sekin boshqa rangga o'tib, zarg'aldoq, sariq, yashil, havorang va zangori ranglar tasmasini hosil qiladi.



1-rasm. Yorug'lik nurining spektral ajralishi.

Активация  
Чтобы активировать  
раздел "Пара"

Tabiatdagi mavjud ranglarni ikki qismga ajratish mumkin: axromatik va xromatik ranglar. Oq, kulrang va qora ranglar hamda ularni har xil nisbatda aralashtirishdan hosil bo'lgan barcha ranglar axromatik ranglar deyiladi. Spektrda axromatik ranglar mavjud emas.<sup>2</sup>

<sup>2</sup> *Interaction of Color*, Albers J. 1963.



## Symposium on Natural and Applied Sciences

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5<sup>th</sup> April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Agar biz kartondan doira qirqib, uni spektr ranglari tartibida-qizil, zarg‘aldoq, sariq, yashil, havorang, ko‘k va binafsha ranglarga bo‘yab, ventilator o‘qiga o‘rnatib, o‘z o‘qi atrofida tez aylantirsak, umumiy ko‘rinishdagi kulrang tus hosil bo‘ladi. Shu usulda uchta asosiy rang-qizil, sariq va ko‘kni aylantirsak, yanada yorug‘roq och kulrang hosil bo‘ladi. Agar yetti xil rangni palitrada aralashirsak, qoramtir tUSDagi aralashma hosil bo‘ladi.

Axromatik ranglar xromatik ranglardan farq qiladi: ular rangni tanlab yutish va qaytarish xossalariga ega. Axromatik ranglardan tashqari barcha ranglar, ya‘ni biror rang tusiga ega bo‘lgan ranglar xromatik ranglarga kiradi.

Har bir xromatik rang uch xossaga ega: rang tusiga, rang yorqinligiga (kam yoki ko‘p yorqinlik) va rang to‘yinganligiga (rang quyugligi).

Spektrni diqqat bilan kuzatsak, uning chekkasidagi qizil va binafsha ranglar orasida o‘xshashlik alomatini sezish mumkin. Ikkala rang bir-biriga qo‘shilganda, ularning oralig‘ida qirmizi ranglar hosil bo‘ladi.

Ranglar doirasida rang tUSlari juda ko‘p bo‘lishi mumkin, lekin inson ko‘zi taxminan 150 rangni ajratishga qodir.

Sovuq ranglar-muz, suv, osmonni eslatuvchi ko‘k, binafsha, havorang va to‘q yashil ranglar.

Iliq ranglar-quyosh, alangani, qizigan temirning taftini eslatuvchi sariq, zarg‘aldoq, qizil va sarg‘ish ranglar.<sup>3</sup>

<sup>3</sup> *The Art of Color*, Itten J. 1961.



## Symposium on Natural and Applied Sciences


Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5<sup>th</sup> April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

## RANGLAR

Rang spektorni 12 xil ranlarni hosil qiladi.



### 2-rasm. Rang va uning turlari.

- I. Asosiy ranglar. Qizil rang, havorang, sariq rang.
- II. Asosiy ranglar, o'rtasida hosil qiladigan to'ldiruvchi ranglar doirasi.
- III. Axromatik rang turlari (oq, kulrang va qora ranglar hamda ularni har xil nisbatda aralashtirishdan hosil qiladigan barcha ranglar turlariga axromatik ranglar deyiladi).
- IV. 12 xil rang turlari.



## Symposium on Natural and Applied Sciences

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5<sup>th</sup> April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

### Ta'lim tizimida rangshunoslik fanini o'qitish muammolari

Dunyo cheksiz sir-sinoatlardan iborat. Ularni o'rganish uchun esa inson umri yetmaydi. Ajdodlarimiz tabiat tomonidan yaratilgan barcha ne'matlarning sirli olami va ularning sabablarini o'rganishga harakat qilganlar hamda shunday xulosaga kelganlarki, dunyoda hech bir narsa sababsiz yaratilmagan. Chunonchi, «rang» atamasi to'rtta harfdan iborat bo'lsa-da, uning ma'nosi va sirli olamini to'liq anglab yetish uchun inson umri kifoya qilmaydi (1,2-rasm).

Rangni ilmiy jihatdan o'rganish maqsadida «Rangshunoslik» fani shakllangan. Rang inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois asrlar davomida olimlar tomonidan ranglar ustida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va bugungi kunda ham bu izlanishlar davom etmoqda. Hozirgi vaqtda bir qator davlatlarda maxsus rang institutlari va ilmiy laboratoriyalar faoliyat yuritmoqda. Jumladan, (Japan Color Research Institute) dunyoga mashhur ilmiy markazlardan biridir. Taniqli olimlar rang orqali ramziy ma'no ifodalash, ranglar vositasida insonlarni davolash va tarbiyalash, falsafiy fikrlarni yetkazish, insonning ichki dunyosini anglash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari unumdorligini oshirish hamda inson ma'naviyatini shakllantirish kabi masalalarni chuqur o'rganmoqdalar.<sup>4</sup>

Respublikamizda yuqori malakali va ma'rifatli kadrlarni tayyorlash hamda ilm sohiblari safini kengaytirish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

<sup>4</sup> *Theory of Colours*, Goethe J. W. 1810.




## Symposium on Natural and Applied Sciences

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5<sup>th</sup> April, 2026

Website: <https://econferencia.com>



**Japan Color Research Institute**

Inson umrining har lahzasida uchraydigan rang insonlarning ma'naviyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Chunki rang ruhiyatga har daqiqada ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yorug'lik mavjud bo'lgan joyda rang ham bo'ladi. Masalan, kechqurun uyingizda chiroq o'chib qoldi deylik-hamma joy qorong'u bo'lib ko'rinadi.

Siz siqilasiz, tushkunlikka tushasiz, insonda mavhumlik paydo bo'ladi. Ko'z qorachig'i kengayadi, yurak urishi o'zgaradi, bu holat esa sog'liqqa salbiy ta'sir qilishi mumkin. Buning aksini olaylik: har bahorda qir-adirlarga sayrga chiqqaningizda, toza havodan tashqari, turli rangdagi gullar, yam-yashil maysalar, musaffo osmon va tog' cho'qqilaridagi oppoq qorlarni ko'rib, ruhingiz ko'tariladi, hayotga va tabiatga bo'lgan muhabbatingiz yanada ortadi. Shu sababli



## Symposium on Natural and Applied Sciences

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5<sup>th</sup> April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

qadimiy qo‘l yozmalarda tabiatlar erta bahorda qir-adirlarga sayohat qilishni tavsiya etganlar.<sup>5</sup>

Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Kamoliddin Behzod, Firdavsiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi jahonga mashhur ajdodlarimiz rang, uning turlari, nomlari, ramziy ma‘nolari hamda inson sog‘lig‘iga ta‘siri haqida ko‘plab yozuvlar qoldirganlar va ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (973-1048) markaziy osiyolik qomusiy olim, matematik, astronom, geograf, tarixchi va faylasuf. U Islomning Oltin davrida yashab, jahon ilm-fani taraqqiyotiga ulkan ta‘sir ko‘rsatgan. Asarlari orqali fanning turli sohalarida yangi yo‘l ochgani uchun u qadimgi dunyo ensiklopedistlaridan biri sifatida tanilgan.



Abu Rayhon Beruniy (973–1048)



Abu Ali ibn Sino (980–1037)

G‘arbda Avitsenna nomi bilan tanilgan Abu

Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn Sino (980-1037) Islom Oltin davrining taniqli fors olimi va faylasufi edi. U tarixdagi eng buyuk polimatlardan biri hisoblanadi, tibbiyot, falsafa, tabiiy va aniq fanlarga ulkan hissa qo‘shgan. Uning asarlari, ayniqsa “Tibbiyot qonuni” asrlar davomida Sharqda ham, Yevropada ham tibbiy ta‘limning asosi bo‘lib xizmat qilgan.

<sup>5</sup> Rangshunoslik va kompozitsiya, Abdullayev N. 2012




## Symposium on Natural and Applied Sciences

Hosted Online from London, United Kingdom


Date: 5<sup>th</sup> April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Kamoliddin Behzod (1450-1535) Markaziy Osiyoning taniqli rassomi, Temuriylar va Safaviylar sulolalari davrida fors va turkiy miniatyura ustasi bo‘lgan. U Hirot rassomlik maktabining asoschisi hisoblanadi va Yevropada miniatyuralarining nafisligi va realizmi uchun “Sharq Rafaeli” deb nomlangan.



Kamoliddin Behzod (1450–1535)



Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530)

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) markaziy osiyolik hukmdor, shoir va tarixchi, Boburiylar sulolasining asoschisi. U XVI asr boshlarida Hindistonda qudratli markazlashgan davlat barpo etib, turkiy va forsiy madaniyatni yangi yurtga olib kirdi, shu bilan birga “Boburnoma” asari orqali jahon adabiyotida chuqur iz qoldirdi.

Alisher Navoiy (1441-1501) Temuriylar davrining buyuk shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi, turkiy (Chig‘atoy) adabiyotining asoschisi edi. Uning ijodi o‘zbek yozma an‘anasining asosini yaratdi va butun turkiy dunyo madaniyatiga chuqur ta’sir ko‘rsatdi.



Abu al-Qosim Firdausiy (934-1020) Tus shahridan (hozirgi Eron) bo‘lgan fors shoiri va mutafakkiri, “Shohnoma” dostonining muallifi. Uning ijodi fors adabiyotining cho‘qqisiga va Eron milliy o‘ziga xosligi hamda Islom Sharqi madaniyatining muhim ramziga aylandi.



Abu al-Qosim Firdausiy (934–1020)

Chunonchi, Abu Rayhon Beruniy o‘zining «Kitob al-javohir fi ma’rifat al-javohir» (Mineralogiya) asarida ranglarning 200 dan



## Symposium on Natural and Applied Sciences

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5<sup>th</sup> April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

ortiq nomlarini sanab o'tgan va ularning kelib chiqishi haqida yozib qoldirgan. Sharqda olimlar, shoirlar, musavvirlar, naqqoshlar va xattotlar ranglarning yuzdan ortiq turini ajrata olganlar, ularning nomini va har bir rangning ramziy ma'nosini bilganlar. Bizgacha yetib kelgan ba'zi rang nomlari quyidagilardir: avion, rahuvon, bargi karam, binafsha, bug'doyrang, bo'z, gulgun, jigarrang, zangori, za'faron, zumrad, qahrabo, kulrang, ko'k lojuvard, lola rang, malla, moviy, mosh rang, nafarmon, oq, pistamagiz, pistaqi pushti, sariq, savsar, samo rang, sur, feruza, uchoq kesak qizil, qirmizi, qora, qora mag'iz, qoracha qo'ng'ir, havorang, anordona, aqiq, bayzo gul, barg rang, baqa tuni, bika, burul, gulnor, gulobi, dani farang, jigari, jiyron, jo'ja, ziynovi, zar, zarchava, zarg'aldoq, kaptarbo'yin, ko'kimtir, lilovi, limurang, maykaylik mikori, nowot rang, nilobi, nimtahir, nim pushti, noigul, olovrang, olmatakori, oq upa suvi, sabzi rang, samak kesaksiyo, sir, sovet, surma rang, tillarang, tupori to'liq, to'tiyoyi va boshqalar. Afsuski, yillar va asrlar o'tishi bilan ranglarning nomi, turlari va ramziy ma'nosi, shuningdek, ularning "tili" asta-sekin yo'qolib borayotgani kuzatilmoqda.

Ulug' allomalarimiz har bir rang nomining nega shunday atalganini o'z asarlarida bayon qilib qoldirganlar. Ajdodlarimiz ranglardan me'morchilik obidalarini bezashda, milliy kiyimlarda, shuningdek, kasalliklarni aniqlash va davolash jarayonida samarali foydalanganlar. Chunonchi, Ibn Taymiyyah rivoyat qilishicha, Payg'ambarimiz turli rangdagi sallalarni o'raganlar: oq, qora, yashil, qizil va havorang. Qora rangli salla ta'ziya marosimlarida o'ralgan. Moviy



Ibn Taymiya

(osmon rang) salla dushman ustidan g'alaba qozonilganda, oq rangli salla masjidga borishda, qizil rangli salla jang vaqtida, sariq rangli salla esa kasalni ko'rish uchun borganda o'ralganligi ta'kidlanadi.

Ibn Taymiya (1263-1328) sunniy ilohiyotshunos, huquqshunos va Hanbaliy maktabining mutafakkiri edi. U



## Symposium on Natural and Applied Sciences

Hosted Online from London, United Kingdom


Date: 5<sup>th</sup> April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Islomni asl manbalariga-Qur'on va Sunnatga-qaytarishga intildi va o'rta asr musulmon an'anaviyligining eng nufuzli shaxslaridan biriga aylandi.

Husayn Voiz Koshifiy libos ranglari haqida shunday deydi, liboslarning rangi turlicha bo'ladi va har bir rang o'ziga xos ma'noni ifodalaydi.

Husayn Voiz Koshifiy (1440-1504) fors ilohiyotchisi, faylasufi, notiq va yozuvchi, Xurosondagi Temuriylar saroyida XV asr ma'naviy va intellektual elitasining vakili bo'lgan. U va'z san'atining yetakchi nazariyotchilaridan biri va axloq, ilohiyot, adabiyot va falsafa bo'yicha ikki yuzdan ortiq risolalar muallifi sifatida tanilgan. Agar oq libos nimani anglatadi, deb so'rasalar, shunday degin: oq kiyim kunning rangidir. Shu sababli bunday libos qalbdagi g'ubor va adovatni yo'qotadi, kishilarga nur va poklik ulashadi. Agar ko'k libos nimani bildiradi, desalar, shunday degin: ko'k rang suv rangidir. Shu bois bu rangda kiyingan kishilar saxiy, hayotsevar va pok niyatli bo'lishlari lozim. Kim bu rangni ma'qul ko'rsa, suvdek toza va musaffo, har bir qalbga yaqin bo'lishi kerak. Agar qora libos nimani anglatadi, desalar, ayt: qora rang tun va ko'z qorachig'ining rangidir. Shu bois bunday libosni kiygan kishilarning qalbi sir-asrorga boy bo'ladi. Agar yashil kiyim haqida so'rasalar, shunday degin: yashil rang samimiy va yetuk insonlar rangidir. Bu rangdagi kiyimni kiygan kishi imkon qadar yordamga muhtojlarga ko'maklashishi lozim.<sup>6</sup>



Husayn Voiz Koshifiy

Ajdodlarimiz bizga rang va uning inson hayotidagi o'rni, shifoviy, tarbiyaviy, falsafiy hamda ruhiy jihatlari haqida boy ma'naviy meros qoldirganlar. Afsuski, bugungi kunda bu ma'naviy xazinadan to'liq foydalana olmayapmiz. Chunonchi, ta'lim tizimi, tibbiyot, texnika, xo'jalik, iqtisod va boshqa sohalarda rang

<sup>6</sup> *Pedagogika va tasviriy san'at o'qitish metodikasi*, Zokirova D. 2021.



## **Symposium on Natural and Applied Sciences**

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5<sup>th</sup> April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

masalasiga yetarlicha e‘tibor qaratilmayapti. Holbuki, jahonning rivojlangan mamlakatlarda rangshunoslikka katta ahamiyat beriladi. Hatto rangshunoslikka ixtisoslashgan ilmiy muassasalar faoliyat yuritadi. U yerda maorif, tibbiyot, iqtisod va texnika kabi turli sohalarda ranglarni o‘rganishga doir yirik fundamental ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Markaziy Osiyoda esa otabobolarimiz qoldirgan ma‘naviy merosdan yetarli darajada foydalanilmayotgani, rangshunoslik bo‘yicha yetuk mutaxassislarning kamligi achinarli holatdir. Mazkur muammoning hal etilishi O‘zbekiston iqtisodiyoti va insonlar salomatligi uchun katta foyda keltirgan bo‘lar edi.

### **Xulosa**

Rang inson hayotida muhim estetik va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, u tabiatni idrok etish, san‘at asarlarini yaratish va dizayn yechimlarini shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Rangshunoslik fanining rivojlanishi esa ranglarning fizik, optik va psixologik xususiyatlarini chuqur tushunishga imkon berdi. Tarixiy jarayonda rang haqidagi dastlabki tasavvurlar ramziy va diniy qarashlar bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik ilmiy yondashuvlar asosida rangning spektral tarkibi, yorug‘lik bilan bog‘liqligi va inson ruhiyatiga ta‘siri keng o‘rganildi. Isaak Nyutonning tajribalari rangshunoslik fanining ilmiy asoslarini shakllantirishda muhim bosqich bo‘ldi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Optika (Opticks), Nyuton I. 1704.
2. Interaction of Color, Albers J. 1963.
3. The Art of Color, Itten J. 1961.
4. Theory of Colours, Goethe J. W. 1810.
5. Art and Visual Perception, Arnheim R. 1954.



## **Symposium on Natural and Applied Sciences**

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5<sup>th</sup> April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

- 
6. Tasviriy sanʼat asoslari, Gʻulomov S. 2010.
  7. Rangshunoslik va kompozitsiya, Abdullayev N. 2012.
  8. Sanʼat tarixi, Karimov B. 2015.
  9. Dizayn asoslari, Qodirov A. 2018.
  10. Tasviriy sanʼat metodikasi, Usmonov T. 2016.
  11. Rang va kompozitsiya nazariyasi, Hasanov M. 2019.
  12. Arxitektura va dizayn asoslari, Rahimov F. 2020.
  13. Estetika va sanʼat falsafasi, Mirzayev A. 2017.
  14. Pedagogika va tasviriy sanʼat oʻqitish metodikasi, Zokirova D. 2021.
  15. Bakhtiyorovich, Ismonov Khurshidbek, and Ruziyev Nuriddin Mukhammadaliyevich. "Pairing, Their Own Aspects and Corresponding Methods of Work with Pairing in the Autocad Software." *International Journal on Orange Technologies* 3.12 (2021): 211-216.
  16. qizi Abduraimova, Muazzamoy Abduqodir. "PERSPEKTIVA." *INTERNATIONAL CONFERENCES*. Vol. 1. No. 11. 2022.
  17. Xurshidbek, Ismonov, Rustamov Umurzoq, and Abduraimova Muazzamoy. "MARKAZIY VA PARALLEL PROYEKSIYA ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO 'RINISHLARI." *Educational Research in Universal Sciences* 1.4 (2022): 70-81.
  18. Ismonov, Xurshidbek Baxtiyorovich, and Muazzamoy Abduqodir qizi Abduraimova. "ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO 'RINISHLARI." *Educational Research in Universal Sciences* 1.3 (2022): 288-296.
  19. Qizi, Abduraimova Muazzamoy Abduqodir. "PROJECTION AND AXONOMETRY."
  20. "UMUM TA'LIM MAKTABLARDA CHIZMACHILIK FANINI O'QITISHNING HOZIR HOLATI." *Oriental Art and Culture*, Vol. 5, No. 6, 2024, pp. 65–69.